



## SEMANTICS OF ASSOCIATIVE RELATIONS IN THE POETRY OF ERKIN VOKHIDOV

**Sharifa Iskandarova**

*Professor*

*Fergana State University*

*Fergana, Uzbekistan*

**Dildora Tursunova**

*Master's student*

*Namangan State University*

*Namangan, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** association, linguistic associations, ancient Greek linguistics, associative relations, lexemes, oppositional units.

**Received:** 02.05.22

**Accepted:** 04.05.22

**Published:** 06.05.22

**Abstract:** The article deals with associative relations in Erkin Vahidov's poetry, semantic and associative features of lexemes.

## ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA ASSOTSIATIV MUNOSABATLAR SEMANTIKASI

**Sharifa Iskandarova**

*Professor*

*Farg'on'a davlat universiteti*

*Farg'on'a, O'zbekiston*

**Dildora Tursunova**

*Magistratura talabasi*

*Namangan davlat universiteti,*

*Namangan, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** assotsatsiya, tildagi assotsatsiyalar, qadimgi grek tilshunosligi, assotsiativ munosabatlar, leksema, oppozitiv birliklar.

**Annotatsiya:** Maqolada Erkin Vohidov she'riyatida assotsiativ munosabatlar, leksemalarning semantik va assotsiativ xususiyatlari haqida so'z yuritilagi.

## СЕМАНТИКА АССОЦИАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ПОЭЗИИ ЭРКИНА ВОХИДОВА

**Шарифа Искандарова**

*Профессор*

*Ферганский государственный университет*

*Фергана, Узбекистан*

**Дилдора Турсунова**

*Магистрант*

*Наманганский государственный университет*

*Наманган, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** ассоциация, языковые ассоциации, древнегреческое языкознание, ассоциативные отношения, лексемы, оппозиционные единицы.

**Аннотация:** В статье рассматриваются ассоциативные отношения в поэзии Эркина Вахидова, семантические и ассоциативные особенности лексем.

### KIRISH

Manbalarda qayd etilishicha, assotsiatsiya (lot. associatio – qo’shish, biriktirish) terminini ilmiy muomalaga 1690-yilda ingliz filosofi, pedagog, empirizm va liberalizm vakili J.Lokk kiritgan. U qadimgi dunyo falsafasida buyuk mutafakkirlar Platon va Aristotel tomonidan ilgari surilgan g‘oyalalar assotsiatsiyasi haqidagi qarashlarni targ‘ib qilgan. Aristotel va Platon yodga tushirish jarayonini assotsiatsiyaning mexanizmi sifatida tushunishgan. Aristotel g‘oyalarning o‘xshashlik, vaqt jihatidan ketma-ketlik va kontrastlik (qarama-qarshilik) asosida o‘zaro assotsiativ bog‘lanishi, Platon esa o‘xshashlik va yondoshlikka ko‘ra xotiradagi bog‘lanishlar haqida ma’lumot bergen.

Tildagi assotsiatsiyalarga ilk bor nemis olimi V.Humboldt munosabat bildirdi. V.Humboldt ob’ektivlik va sub’ektivlik dialektikasini tahlil qilar ekan, «odamlarning o‘z ruhi sozining aynan bitta tugmasi (klavishi)ga qo‘l tekkizishlari va buning natijasida har bir inson ongida bir-biriga muvofiq keluvchi, ammo aynan bo‘lmagan fikrlar paydo bo‘lishi» hisobiga o‘zaro tushunish yuz berishini qayd etdi.

### ASOSIY QISM

Tilshunoslar XIX asr oxirlaridan boshlab assotsiatsiyalarning bir ko‘rinishi sifatida leksik assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishi, assotsiativ ma’nosи, inson xotirasida assotsiativ guruhlarga birlashishi kabi masalalar tadqiqiga alohida e’tibor qarata boshlashdi. G‘arb tilshunoslida ayni shu davrdan boshlab lingvistik assotsiatsiyalarni o‘rganishga kirishildi.

Assotsiatsiyalarning o‘rganilish tarixi qadimgi grek tilshunosligi, xususan, Aristotel asarlarida bayon etilib, XX asr boshlariga kelib, tibbiyat va psixologiyada bu masala bilan

maxsus shug‘ullanila boshlandi. Assotsiatsiyalarni o‘rganishga bag‘ishlangan yirik tadqiqotlar muallifi Frensis Galtondir. U XIX asrning oxirida birinchi bo‘lib assotsiativ tajriba o‘tkazib, ularga ilmiy jihatdan yondashdi. Keyinchalik bu xususda G.Kent va A.Rozanov tomonidan o‘tkazilgan tajribalardan ma’lum bo‘ladiki, assotsiatsiya shaxslarning nafaqat psixik rivojlanishini, balki nutqiy faoliyatini, uning taraqqiyot darajasini ko‘rsatadi[1.44].

Rus tilshunosligida ham XIX asr oxirlaridan boshlab tildagi assotsiativ munosabatlarni o‘rganishga intilish kuchaydi. Bu davrda Qozon lingvistik maktabi vakili N.V.Krushevskiy birinchilardan bo‘lib assotsiatsiya qonuniga ko‘ra tilda so‘zlarining assotsiativ qatorlarga tizilishi haqidagi qarashlarni ilgari surdi. Uning fikricha, “so‘zlar bir-biri bilan: 1) o‘xshashlikka ko‘ra; 2) yondoshlikka ko‘ra assotsiatsiya orqali bevosita bog‘lanadi. Shu joydan so‘zlarining uyalari yoki tizimlari va qatorlari kelib chiqadi”. Yu.N.Karaulovning fikricha, tilda mazmun jihatdan alohida, ya’ni ayrilgan (avtonom holdagi) leksema bo‘lishi mumkin emas. Tildagi har bir leksema mazmunan bir-biri bilan bevosita bog‘lanmasa-da, leksemalar bir-biriga moslanib shunday zanjir hosil qilishi mumkinki, bunday zanjir ikkita turli ma’noli va mazmun tomonidan bir-biridan uzoq bo‘lgan leksemalarni bir-biri bilan bog‘laydi[2.77].

O‘zbek tilshunosligida A.Sobirov va B.Qurbanova, D.Xudoyberanova, D.Lutfullayevalar tomonidan assotsiativ munosabatlar xususida ba’zi fikrlar mavjud[1;3;4;5;6;7].

Ma’lumki, tildagi ma’noli birliklar semantikasi, tabiiy ravishda, yondosh ma’nolar (yaqin, zid, o‘xshash ma’nolar) orqali ochib beriladi. Masalan, yaxshi leksemasining ma’nosiga yomon leksemasining ma’nosini asosida aniqlik kiritiladi. Bu jarayonda til birligining assotsiativ ma’nosini muhim o‘rin tutadi. Leksemaning assotsiativ ma’nosini leksik ma’no kabi so‘z orqali reallashadi, biroq leksik ma’no leksemada o‘z ifodasini topsa, assotsiativ ma’no til egalari lisoniy ongida muayyan leksik birlik bilan bog‘liq tarzda shakllanadi. Assotsiativ ma’no leksemaning nafaqat semantik jihatni, grammatik shakli, intonatsion xususiyati, so‘z yasalish strukturasi, uslubiy, dialektal belgisi kabi lingvistik omillar, balki ekstralinguistik omillar asosida ham hosil bo‘ladi[3.25].

Antonimlar mohiyatini assotsiativ tajribalar asosida o‘rgangan tilshunos J.Dizning qayd etishicha, zidlanishdagi a’zolar bir-biriga shu qadar kuchli bog‘langanki, agar insonga antonimik juftlikning bir a’zosini aytib, undan javob tariqasida boshqa so‘zni aytish so‘ralsa, u hech ikkilanmay antonim bilan javob beradi[4.216].

Shoir Erkin Vohidov she’riyatiga nazar tashlash orqali assotsiativ birliklarning xususiyatini tahlil etamiz.

Badiiy matnda qo'llangan assotsiativ munosabatdagi birliklar tahlili orqali ijodkorning voqelikni idrok etishi va u haqdagi tasavvurlari, leksik zahirasi, zahira ko'lami hamda tarkibi, ijodkorning so'z tanlash mahorati haqida qimmatli bilimlarga ega bo'lishimiz mumkin.

*Shoirning she'riy misralariga murojaat qilamiz:*

*Yuragimda his etdim qanot,*

*Tilsim kabi ochilur hayot,*

*Visoldagi damlarim shirin,*

*Hijrondagi g'amlarim shirin,*

*Kulib boqar menga koinot...*

(“Sevgi”)

Yuqorida keltirilgan parchada *visol* leksemasi qo'llangan. Ushbu leksema hayolimizga kelganda uning zidi hisoblanmish *hijron* atamasi ham ongimizda shakllanadi. Ushbu oppozitiv birliklarni misralarda yonma-yon keltirgan shoir assotsiativ munosabatni shakllantirgan.

O'lmas so'z san'atkori ijodidan yuksak o'rinnegallagan quyidagi she'riy parchada ham *rohat-azob* zid ma'noli birliklar qo'llash orqali assotsiativ bog'lanishni hosil qilgan:

*Bu jahoning rohatin ol,*

*Bor azobin menga ber,*

*Senga bo'lsin barcha orom,*

*Barcha bemorlik menga.*

(“Barcha shodlik senga bo'lsin” )

*Sen shahonshohlikni olgin,*

*Menga qullik bo'lsa bas,*

*Bor jafokorlik senga-yu,*

*Bor vafodorlik menga*

(“Barcha shodlik senga bo'lsin” )

*Sevgi shunday tangridirki,*

*Unga tengdur shoh, gado,*

*Qulni aylab shohu sulton,*

*Shohni bo'lsa qul qilur.*

(“Sevgi shunday navbahorki”)

Shoir ijodini o'rganish mobaynida uning *shoh* va *qul*, *shoh* va *gado*, *shahanshohlik* va *qullik* kabi o'zaro zid ma'noli birliklardan ko'p foydalanganining guvohi bo'ldik.

Y.Odilov antonimik birliklar assotsiatsiyasi haqida quyidagilarni yozadi: «Antonimiyada zid a'zolardan birining voqelanishi assotsiativ tarzda ikkinchisini namoyon etadi, ya'ni yaxshi deyilishi bilan tasavvurimizda yomon tushunchasi aks etadi»[5.48,49]. Ko'rinadiki, tahlil etilgan birliklarda bir ma'no assotsiativ tarzda ikkinchi ma'noni xotirada tiklaydi.

*Senga bo 'lsin nurli kunduz,  
Menga qolsin qora tun,  
Barcha gulshan senga bo 'lsin,  
Bor tikanzorlik manga.*

(“Barcha shodlik senga bo‘lsin” )

Ushbu she'rda *nurli kunduz* va *qora tun* kabi sifatlovchili oppozitiv birliklarni yonma-yon qo'llagan shoir assotsiativ qatorni shakllantirgan. Keying misrada qo'llangan *gulshan* va *tikanzorlik* leksemalari ham o'zaro zidlik munosabatiga kirishadi. Ko'rinib turganidek, bu ijodkorning so'z qo'llash mahorati yuksakligi va boyligidan dalolat beradi.

*Do'st qidir, do'st top jahonda,  
Do'st yuz ming bo'lsa oz,  
Ko'p erur bisyor dushman  
Bo'lsa u bir dona ham.*

(“Do'st bilan obod uying”)

*Do'st-dushman, oz-ko'p* leksemalari bir zidlik qatorida joylashgan. Bu juftliklar inson ongida bir-birini yodga solib yashaydi.

*Ham qorong'u kechadir ul,  
Ham yorug' kunduz menga  
Ko'zlarimda kecha-kunduz  
Chun namoyondir ko'zing.*

“Ko'zing” she'rda ham *qo'rong'u kecha, yorug' kunduz, kecha-kunduz* kabi bir-biriga zid ma'noli leksemalar assotsiativ munosabat yuzaga kelishiga xizmat qilgan. Ijodkorning leksik zaxirasi boyligi va so'z qo'llash mahorati kuchli ekani oppozitiv ma'nodagi juft birliklarni ham, sodda leksemalarni ham misralarga mahorat bilan ketma-ket joylagani va assotsiativ qator hosil qila olganidadir.

## XULOSA

Xulosa qilib aytsak, assotsiativ munosabatlar qatori cheksiz va xilma-xildir. Bir-birini yodga tushirish orqali hosil bo'ladigan assotsiatsialar nafaqat bir-biriga yaqin ma'noli leksemalarda, balki zid ma'noli so'zlar qatorida ham yashashini shoir Erkin Vohidov she'rlari

misolida ko‘rib guvohi bo‘ldik. Bu, albatta, tilimiz imkoniyatlari nechog’li keng ekanidan dalolat beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Iskandarova Sh. Leksikani mazmuniy maydon asosida o‘rganish muammolari. T.: Fan. 1998;7.- B.44.
2. Karaulov Yu.N. Obshaya i russkaya ideografiya . -M.: Nauka, 1976.- S.77.
3. Iskandarova Sh. Til sistemasiga maydon asosida yondashuv. Toshkent: Fan. 2007;152.
4. Sobirov A. O‘zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. - Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
5. Qurbanova B.Q. Lokallik va uning o‘zbek tilida ifodalanishi: Filol. fanl. nomz....diss. avtoref. - Toshkent, 2007.
6. Xudoyberanova D. O‘zbek tilida badiiy matnlarning antroposentrik talqini: Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. -Toshkent, 2015.
7. Lutfullayeva D. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. Monografiya. –Toshkent, “Meriyus”, 2017.
8. Lutfullayeva D. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Meriyus, 2017. – B. 25.
9. Deese J. The structure of associations in language and thought. Johns Hopkins Press. 1965. – P. 216.
10. Odilov Yo. O‘zbek tilida enantiosemya // N.Mahmudov, Yo.Odilov. So‘z ma‘no taraqqiyotida ziddiyat. – Toshkent: Akademnashr, 2014. 48-49.b
11. Ganieva, Sh A. "Phraseological Meaning and Its Structure." *The Way of Science* (2014): 40.
12. Iskandarova S. M. THE ISSUE OF POLYSEMANTICS IN THE SEMANTIC FIELD //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 8. – C. 236-239.
13. Iskandarova, S., & Mirzatillaeva, S. (2021). ARABIC ASSIMILATIONS USED IN FITRAT’S JOURNALISTIC WORKS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758), 2(06), 88-92.
14. ISKANDAROVA, S. M., & ASHUROV, D. Linguculturological Analysis Of Head Stem Phrasemas. JournalNX, 6(12), 378-383.
15. Iskandarova, S. M., & Kakharov, K. S. (2014). THE ROLE OF NONVERBAL MEANS IN COMMUNICATION OF THE DIFFERENT NATIONS. The Way of Science, 45.
16. Iskandarova, S. M. (2019). THE ISSUE OF POLYSEMANTICS IN THE SEMANTIC FIELD. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(8), 236-239.

17. Iskandarova, S. M., & Kholdarova, I. (2020). GENERONYMS IN THE UZBEK LANGUAGE ANDRIDDLES. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(7), 225-231.
18. Iskandarova, S. M., & Khudoykulova, U. A. (2016). EXPRESSING DIFFERENTIAL SEMES IN RIDDLES. Ученый XXI века, (3-4), 28-31.
19. Iskandarova S. M. Gnoseology and the Linguistic Landscape of the World //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 8. – C. 19-22.
20. Ganieva, S. A. (2021). HYPO-HYPERONYMIC RELATIONSHIP BETWEEN PAREMA AND ITS UNITS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758), 2(06), 84-87.
21. Ganieva, D. A. (2021). INTERMEDIATE UNITS AND THEIR PLACE IN THE LANGUAGE SYSTEM. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758), 2(06), 80-83.
22. Ganieva S. A. Syntagmatics of Phraseologisms and their Time Valency //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 8. – C. 232-236.
23. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120.
24. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. – P.33-39.
25. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Lirycs. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 656-664.
26. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 03. – C. 245-249.
27. Oripova, G. (2020, December). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. In *Конференции*.
28. Oripova, G. (2019) "Traditions of folk ballads and distinctiveness of uzbek poetry of independence period," *Scientific journal of the Fergana State University*: Vol. 2 , Article 12.
29. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(12), 90-94.